

ЗНАЧЕНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ И УМСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ.

**Абдумажитова Саёхат Абдукосимовна
Термезский государственный
педагогический институт учитель**

Аннотация: В этой статье рассматриваются когнитивные процессы и умственное развитие дошкольников. В процессе познания формируется сознание ребенка, его чувства. Прежде всего формируются поведенческие привычки, которые необходимы для общественной жизни и служат социальным отношениям. Служит для обеспечения всестороннего развития дошкольников с учетом их возрастных и индивидуальных особенностей. Дошкольные образовательные организации также всесторонне воспитывают детей

Ключевые слова: дошкольник, ребенок, познавательный процесс, умственное развитие, сознание, чувство, индивидуальная особенность, словесное творчество, мыслитель, педагог, ученый

THE IMPORTANCE OF COGNITIVE PROCESSES AND MENTAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOLERS.

**Abdumajitova Sayokhat Abdukosimovna
Termez State Pedagogical Institute teacher**

Abstract: This article examines the cognitive processes and mental development of preschoolers. In the process of cognition, the child's consciousness and feelings are formed. First of all, behavioral habits are formed that are necessary for social life and serve social relationships. It serves to ensure the comprehensive development of preschoolers, taking into account their age and individual characteristics. Preschool educational organizations also provide comprehensive education for children.

Keywords: preschooler, child, cognitive process, mental development, consciousness, feeling, individual peculiarity, verbal creativity, thinker, teacher, scientist

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV JARAYONLARI VA AQLIY RIVOJLANISHINING AHAMIYATI.

Abdumajitova Sayohat Abdukosimovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari va aqliy rivojlantirish haqida yoritilgan. Bilish jarayonida bolaning ongi, his tuyg'ulari shakllanadi. Eng muhimi ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy munosabatlarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham bolalarni har tomonlama tarbiyalaydi

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, bola, bilish jarayon, aqliy rivojlantirish, ongi, his tuyg'u, individual xususiyat, og'zaki ijodiyot, mutafakkir, pedagog, olim

Maktabgacha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishiga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, uning hududiy

bo'linmalarining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish berish belgilandi. Shuning uchun ham o'zbek milliy-ma'naviy merosi jahon madaniyatining ajralmas uzviy qismidir. Bugungi globallashuv jarayonida dunyo miqyosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning innovatsion modellari va mexanizmlari ishlab chiqish, xalq og'zaki ijodi namunalarini pedagogik texnologiyalar va ta'lim strategiyalari bilan o'zaro uyg'unlikda bag'rikenglik munosabatlari ruhida va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom muhitda ta'lim va tarbiya olishlarini ta'minlash, ularni boshlang'ich maktab ta'limiga sifatli tayyorlash dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvining yengil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir.

Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
2. Aqliy faoliyat bilish jarayonlari va qobiliyatlarini, aqliy jarayonning xilma xil usullarini rivojlantirish;
3. Mustaqil bilish qobiliyatlarini aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish;
4. Aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Bilimni tasavvurlar va tushunchalar, qoidalar, qonuniyatlar, sistemalar shaklidagi turli fanlarning mazmunini tashkil etadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalarda voqea va hodisalarni to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi

umumlashtirilgan bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi.

Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalanilgan bo'lib qoladi. Vatanimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalar qatorida maktabgacha ta'lim sohasida ham juda ko'plab ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi maktabgacha yoshdagi bolajonlar va qizaloqlar zimmasida sog'lom, aqlli bo'lib, jamiyatimizning faol a'zolariga aylanishdek katta vazifa turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 6(766)-son. – 70-modda
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. – T., 2012. – 196 b.
3. Hikmatullaevna, M. K. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 571-574.
4. Kuvvatova, M. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 665-670.